

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A. Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi (XIX asrning ikkinchi yarmi).....	203
M.M. Temirova	
O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari	208
Q. Sulaymonov	
Iqtisodiyotni globallashtirishda informatsiyaning o'rnini	213
X.E. Xodjamberdiyev	
Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri.....	216
A.A. Xakimov, O. Sh. Ubaydullayev	
Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi (Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida).....	222
M.M. Abdullayeva	
Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi (Namangan viloyati misolida)	226
F. Abdurasulova	
Buxoro amirligida diniy ta'limning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi davrida rivojlanishi	232
A.A. Aloxunov	
Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati	236
M.B. Siddiqov	
Ikkinchi jahon urushi yillarida pensiya tizimi	241
G.A. Abdug'aniyeva	
Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi	247
N.V. Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi.....	252

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G. Sabirdinov	
Xudoyberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati	257
G.V. Abdullayeva	
Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi.....	260
S.Q. Mamatova	
Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari.....	267
N.Y. O'roqova	
Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini	271
D.A. Qahharova	
Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili.....	280
S.A. Xaqnazarova	
An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar	287
M. Islomova	
Hayot haqiqati va badiiy tafakkur	290
A.A. Qayumov, D.G'. Gafurova	
Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida).....	294
Y.B. Eshmatova	
Turk hikoyachiligida an'ana va yangilanishlar sintezi.....	299
Д. О. Турдалиев	
Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации	303
F.B. Sultonqulova	
Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiati	306
G.A. Jurayeva	
Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	310



UO'K: 821.161.3-93

BOLALAR SHE'RIYATIDA LIRIK QAHRAMON MASALASI

ПРОБЛЕМА ЛИРИЧЕСКОГО ГЕРОЯ В СТИХОТВОРЕНИЯХ ДЛЯ ДЕТЕЙ

THE ISSUE OF THE LYRICAL HERO IN CHILDREN'S POETRY

Abdullayeva Gulnoza Voxidjonovna 

Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya

Maqolada bolalar she'riyatida lirik qahramon ifodasi, ularning yoshiga va tabiatiga mos holda shoirning o'zi yoki shoir tomonidan roli o'ynalayotgan bola obrazi sifatida aks etishi Tursunboy Adashboyev, Abdurahmon Akbar va Dilshod Rajablarning ijodi misolida o'rganilgan. Bolalar she'riyatida lirik qahramon mavqeda bola obrazi bo'lib, u yosh jihatidan farqlanadi va ularning bu davrga xos xarakter-xususiyatlari, his-tuyg'ulari, o'y-fikrlarining namoyon bo'lishi qiyosiy metod asosida tahlil etiladi.

Аннотация

В статье на примере творчества Турсунбая Адашбоева, Абдурахмона Акбара и Дилшоода Раджаба исследуется изображение лирического героя в детской поэзии, выражение самого поэта или роль ребенка, сыгранная поэтом в соответствии с его возрастом и характером на примере. В детской поэзии лирическим героем выступает образ ребенка, различающегося по возрасту, а проявление его особенностей, чувств и мыслей, свойственных этому периоду, анализируется на основе сравнительного метода.

Abstract

In the article, the expression of the lyrical hero in children's poetry, the expression of the poet himself or the role of a child played by the poet in accordance with their age and nature, is studied on the example of the work of Tursunboy Adashboyev, Abdurahmon Akbar and Dilshod Rajab. In children's poetry, the lyrical hero is the image of a child, who differs in terms of age, and the manifestation of their characteristics, feelings, and thoughts specific to this period is analyzed on the basis of the comparative method.

Kalit so'zlar: Lirik qahramon; tabiat tasviri, obraz, obrazlilik, lirik "men", xarakter.

Ключевые слова: Лирический герой, образ природы, образ, образность, лирическое «Я», характер.

Key words: Lyrical hero, image of nature, image, figurativeness, lyrical "I", character.

KIRISH

Bolalar she'riyatida lirik qahramon ular tabiatiga, yoshiga mos holda, shoirning o'zi yoki shoir ifoda etayotgan obrazidir. Bu borada ijodkorlar bolalar qalbini anglashi, uni his etishi lozim, ya'ni o'z "men"i orqali ularning "men"ini ifodalashi zarur. "Lirik qahramon – his-hayajoni, ruhiy kechinmalari va o'y-fikri bilan lirik asarda namoyon bo'luvchi shaxs obrazi"dir. Lirik she'rda ifoda topayotgan o'y-fikr, hayajon, quvonchu alamli kechinma va tuyg'ular ko'pincha shoir ruhiyati mahsuli ko'rinishida namoyon bo'ladi. Lirik qahramon boshqa birovlarining o'y-fikr, kechinmalarini o'zinikiday ifoda etadi. Lirik qahramon shoirning aynan o'zi emas, u "men"idan yaratilgan boshqa bir "men"dirki ko'p hollarda lirik qahramon va shoir munosabati prototip va xarakter munosabatiga qiyosan tushuniladi. Shunday ekan, bolalar she'riyatida lirik qahramon shoir tomonidan roli o'ynalayotgan bola bo'lib, uning his-tuyg'ularini, ba'zan esa bola obrazi misolida shoir o'z xotira va ichki kechinmalarini ifoda etadi. R.Barakayev "...ijodkor asarlarini bolalarga mo'ljallab yaratar ekan, uning asosiy qahramonlari bolalar bo'lishi ham tabiiy. Chunki kitobni o'qiyotgan bola asardan, avvalo, o'zini, shuningdek, o'y-fikrini, dunyoqarashi, izlanish-intilishlari o'ziga monand keladigan tengdoshlarini qidiradi", – deya fikr bildiradi. Darhaqiqat, bolalarga atab yaratilgan asarlarda ularning xarakterlari, ruhiy o'y-kechinmalari, shodlig-u qayg'ulari, uddaburonlik, sho'xliklari, kulgisi-yu yig'isi aks etmasa bunday asarni bolalar uchun yaratilgan asar deyish o'rinsiz va bolalarga manzur ham bo'lmaydi. Ijodkor har bir insonning har qanday ruhiy holatda tasavvur eta bilishi, yoshi, kasb-kori, jinsidan qat'i nazar ularning ichiga kira olishi kerak. Inson kechinmalarini tasvirlash dunyoni, shu bilan birga o'zini ham anglash vositasidir. Bunday xususiyat bolalar adabiyoti uchun ham xos bo'lib, ijodkor bolalarning botiniy va zohiriy

ADABIYOTSHUNOSLIK

dunyosini aks ettirish bilan birga, dunyo haqidagi tasavvurlari nabotot va hayvonot olami haqidagi tushunchalarini ifoda etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalar she'riyatda lirik qahramon va poetik obraz tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Hayot haqiqatini anglashda kishilar bir-biriga "oyna" vazifasini bajaradi. Ular bir-birlariga o'zlarining tashqi ko'rinishi, gap-so'zi, xatti-harakatlari bilan borliqdagi barcha narsa-hodisalardan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ham bugungi kunda bolalar adabiyotida lirik qahramon sifatida bolaning o'zi maydonga chiqdi. Lirik qahramon zamirida esa odamlarning – bolalarning o'ziga xos "badiiy maketi", "obrazi", "nusxasi", "ramzi" ifodalandi. A.Ulug'ov "ramz"larda odamlar olami haqiqati qanchalik jonli aks etsa, u shunchalik ta'sirchan bo'ladi" [1.468], – deya to'g'ri ta'kidlaganidek, bolalar she'riyatida yosh kitobxonga o'zini o'rnak qilib ko'rsatish muhim sanalib, badiiy-estetik ta'sirdorlikni oshiradi. V.G.Belinskiy ham poeziya obrazlar bilan so'zlashadi, bolalar xulosalarni, isbotlarni talab etmaydi, ularga obrazlar, bo'yoqlar, tovushlar kerakligini aytib o'tgan [2.28]. T.Adashboyevning "Vatan" mavzusidagi she'rlarida lirik qahramon sifatida shoirning o'zini ko'rish mumkin, shuningdek, aksar she'rlarida bolalar obrazlari asar markazida bo'lib, asar sujeti ular tomonidan tasvirlanadi. Bu obrazlarda beg'ubor, sodda, bolalarcha ayyor ba'zan olamning sir-sinoatlarini bilishga intiluvchan bolalar aks etadi. Shoir o'z "men"ini tasvirlaganda bolalik xotiralariga, tug'ilib o'sgan joy manzaralari ta'rifiga murojaat qiladi. Bolalar "men"i orqali esa bolalik qiyofasini tasvirlaydi. Shoir Orif To'xtash "bola bo'lolmasak barchasi bekor" [3.73], – deb to'g'ri ta'kidlaganidek, T.Adashboyev she'rlarida bolalar olamini, bolalikni namoyon eta oldi. Shoirning lirik "men"i urush, urushdan keyingi davr qalamga olingan xotiralarida va "Osmoni kengroq", "Onam yopgan patirdek", "Ilinj", "Yengil tortib", "Laylaklar" kabi she'rlarida o'z ifodasini topgan. Har bir shoir vatanni madh etar ekan, millatning o'zligini anglatuvchi bosh belgi – "ona tili" qadr-qimmatini ham o'z his-tuyg'ulari, milliy iftixori sifatida talqin etadi. Yosh kitobxonda vatanni qadrlash, ajdodlarga hurmat, yurtga munosib farzand bo'lish hissiyotlarini uyg'otadi. Shoirning estetik ideali orqali ma'naviy-madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, iftixor tuyg'ulari yosh kitobxonning ma'naviy olamini yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

A.Akbarning ham vatan, yurt ozodligi mavzusidagi she'rlarida lirik qahramon sifatida asosan shoirning o'zi gavdalangan bo'lib, o'zining his-tuyg'ulari, kechinmalari, tushunchalarini bolalar tilidan, ularning nigohi orqali ifoda etadi. Shoirning vatan mavzusidagi she'rlarida lirik qahramonning, ya'ni o'zining vatanga bo'lgan muhabbati, his-kechinmalari sodda va bolalarga tushunarli so'zlarda ifoda etiladi. "Ona-tilim" [4.84] she'rida esa lirik qahramon ona tili ta'rifini o'z his-tuyg'ulari asosida, ohorli o'xshatish va jonlantirishlar yordamida tasvirlaydi. O'xshatishlar bandlarda: "o'zligim, o'zbekligim, dilimizning suvrati, quyosh-u oy tilimiz, porlab turgan ko'zimiz" kabi darajalanib boradi. Bu shoirning o'ziga xos uslubiy mahorati sanaladi. Shu bilan birga "Toshkentim", "Niyozbosh", "Nodira", "Armon" kabi she'rlarida lirik qahramon shoir prototipi bo'lib, uning "men"i orqali his-tuyg'ulari ifodalangan.

D.Rajabning vatan mavzusidagi she'rlarida ham lirik qahramon sifatida o'zi namoyon bo'lgan. "O'zbekiston", "Ishonch", "Yurt bayrog'i" [5.144] kabi she'rlarida shoirning his-tuyg'ulari, vatanga bo'lgan mehri ifodalangan. "O'zbekiston" she'rida lirik qahramon – shoir "men"ida ko'tarinki ruhiyat yetakchi sanalib, vatanni "mangu imkon, ulkan ummon, ko'zning oq-qoraligi, bag'rini esa dur-marvarid" kabi o'ziga xos tashbehlar asosida ta'riflaydi. "Ikki daryo oralig'ida" birikmasi vatanning tarixiga, geografik o'rniga ishora sifatida berilgan. "Sen ko'zimning oq-qoralig'i" misrasida tazod she'riy san'ati lirik qahramonning jo'shqin his-tuyg'ularini namoyon etgan. D.Rajab poetikasida ham T.Adashboyev uslubiga xos vatan madhini tarix va makon bilan bog'lash ko'zga tashlansa-da, his-tuyg'ular ifodasini o'ziga xos jonlantirish, o'xshatish va tazod badiiy san'atlarini sintezlash asosida ifodalash individualligini belgilaydi. Shoirning "Navro'zi olam keldi" she'rida ham shoir "men"i orqali bahor go'zalliklari va erkin-ozod vatan madhini, istiqloлга erishgach shoirda yuzaga kelgan quvonch, baxt tuyg'ularini izhor etadi. Yosh kitobxonga mos detallar asosida bola qalbini yoniq lolaga, qo'shiq-yallalarni qaymoqqa o'xshatilishi tasvir originalligini ta'minlagan. To'rtinchi bandda keltirilgan misralarda "Yaxshilikni o'ylayin, / Yaxshilikni so'ylayin / Yomonlarni qo'yayin, / Ayyomlarni kuylayin" misralarini shoirning – lirik qahramonning go'yo o'z oldiga qo'ygan maqsadini ifodasi sifatida tushunish mumkin. Misralardagi antiteza bolaga tushuncha va hodisalarni qiyoslash imkonini beradi. She'r yakunida xalq og'zaki ijodiga xos "Yurt to'yin to'y-to'ylayin" misrasi baxt va xursandchilikni kuylash mazmunida bo'lib, lirik qahramonning quvonch, shodlik tuyg'ularini izohlashga xizmat qilib,

she'r badiyatini oshirgan. Lirik qahramon his-kechinmalarida vatanga muhabbat zamirida milliy qadriyatlar, faxr-iftixor, kelajakka ishonch, yaxshilik, ezgulik g'oyalari umuminsoniylik kasb etganini ko'rish mumkin. She'rda ifoda topayotgan kechinma va tuyg'ular ko'pincha shoir ruhiyati mahsuli ko'rinishida nomoyon bo'ladi hamda boshqa birovlarining kechinma va tuyg'ularini o'zining ifoda etadi. Demak, vatan, tabiat tasviriga bag'ishlangan she'rlarda lirik qahramon katta yosh sifatida namoyon bo'lgan. Bola "men"i, ya'ni bola obrazida esa quvnoq, tafakkuriga mos sodda o'y-xayollar, ruhiy kechinmalar ularning tabiatiga mos tarzda beriladi va yosh kitobxonni o'ziga jalb etadi. Forobiy "She'r haqida" nomli asarida taqlidning ikki turi borasida to'xtalib o'tadi. Birinchisi, inson o'z qo'li bilan biror narsaga aynan o'xshagan narsani yasaydi. Masalan, biror narsaning haykali, surati va h.k. Ikkinchisi, inson biror boshqa insonga xos harakatni o'xshashlikka asoslanib aynan amalga oshiradi [6.28-29]. Masalan, raqs yoki muqallid san'ati. Birinchi taqlidga etibor qaratsak, shoir ham bolalarga xos holatni o'zlariga o'xshagan obraz yordamida ifoda etadi.

T.Adashboyevning aksar she'rlarida maktabgacha va ilk maktab yoshidagi bolalar va qizaloqlarning turli fe'l-atvori quvnoq va samimiy obrazda talqin etiladi. Ushbu lirik qahramonlar goh o'z soddaligi tufayli kulgili holatga qoladi, goh o'zlarini dono hisoblab, kattalarga gap uqtiradi. Shoirning "Eski bo'lib qoladi"[7.21] she'rda ayni shunday obrazni ko'ramiz. She'r muallif nutqi bilan boshlanib, ikkinchi banddan Dilshod va tog'asining dialogik nutqiga o'tadi. Yosh bolalarga xos yangi kiyimini qo'yarga joy topolmay, asrab-avaylash holati yumoristik tarzda ifoda etilgan. Bu holat maktabgacha va ilk maktab yoshidagi bolalarda ko'p uchraydi. – *Tog'a, uni kiysam-chi, / Eski bo'lib qoladi* misralari orqali yumoristik vaziyat yanada kuchayadi. Dilshod obrazida ehtiyotkor, sodda va samimiy bola obrazi namoyon bo'lgan. "Joyiga osayabman" she'rda so'zga chaqqon, biroz sho'xroq xarakterli bola (qiz) obrazi ifodalangan. Ushbu she'r uchlik: muallif, Nazmi xola va Xosiyatxon nutqi orqali berilgan bo'lib, muallif "men"i, buva va nabira (qizaloq) obrazida namoyon bo'lgan. Nazmi xolaning " – *Shoxda nima qilayabsan? / Pastga tush, Xosiyatxon!*" degan savoliga kutilmagan, hayratomuz: " – *To'kilgan olmalarni joyiga osayabman*" javobi kitobxonda kulgini yuzaga keltiradi. Ushbu javob orqali shoir yaratgan bola obrazi aqli, uddaburon, so'zamol, hozirjavob ekanligi anglashiladi. Shoirning lirik qahramoni xayolga ham kelmagan, kutilmagan javobi bilan kitobxonni lol qoldiradi. Yana shunday hayratomuz javoblari bilan kulgini yuzaga keltiruvchi bola (qiz) obrazi "Dazmol" she'rda ham mavjud. She'rda buvisining peshonasidagi tirishlarga hayron, sababini bilishga qiziquvchi va "Dazmol bosib olsangiz, / Tekis bo'lib qoladi" deya javob berib, quvnoq kayfiyatni yuzaga keltiruvchi, topqir, hozirjavob bola obrazi gavdalangan, shunga monand "Mayiz", "Yalayapman" she'rlarida ham ana shunday obrazlarni ko'ramiz. Shoir bolalar obrazida ularning turli xarakterlarini yaratgan ekan, oddiy nasixatgo'ylikdan qochib, bolaning o'zini o'rnak qilib, sho'xliklarini, ruhiyatini, idrokini tasvirlaydi. Shoir uslubining an'anasiga xos jihatlar A.Akbar ijodida ham mavjud bo'lib, bola "men"ini o'ziga xos tarzda ifodalay oldi. Shoir "Kashfiyotchilar" she'rda o'z nomi bilan "kashfiyotchi" bola obrazini yaratdi.

Sherzod-ku yosh – esi yo'q, / Senga ne bo'ldi, qizim?

Beshta kosa singuncha / Qarab turdingmi-a jim?

– Ukam hech ko'nmadi-da, / – O'zini oqlar Lola.

Ikkimizga kosadan / Yasayman deb piyola...[8.61]

Aksar hollarda shoir "kashfiyotchi" bolalar obrazini tasvirlaydi, ushbu so'zning qo'shtirnoqda berilishi kinoya mazmunida bo'lib, majoziy-ko'chma ma'no ifodalagan. Dialogik nutqqa asoslanishi she'rning personajli lirikaga xosligini anglatadi. T.Adashboyevda ham dialogik va polifonik nutq ifodasi yetakchilik qiladi. Personajli lirika subyektiv shakllantirilishiga ko'ra she'rda lirik qahramon bilan bir qatorda personaj (o'zga bir shaxs)ning ishtiroki ham ko'zda tutiladi. ...o'zga shaxs she'r subyektlaridan biriga aylanishi, uning tilidan ifoda etilgan lirik kechinma (o'y-fikr, his-tuyg'u) mustaqil g'oyaviy-badiiy qimmat kasb etishi, boshqacha aytsak, she'r dialogik (polifoniklik) xususiyatga ega bo'lishi taqozo etiladi.[9.223-224] She'rda lirik qahramon – shoir tomonidan roli o'ynalayotgan ota va Lola ismli qizaloq obrazining qiziqarli suhbat jarayoni berilgan. Biror narsani kashf qilmasada, vaziyatdan chiqib ketish uchun so'z topa olganligi, muammoga ijobiy yondashganligi Lolaning kashfiyotidir, uning bu hozirjavobligini so'z kashfiyotchisi deyishimiz mumkin. Shoir bolalar tafakkurini, bolalarning xarakterlarini yaxshi anglab, she'rlarida namoyon eta olgan. She'rda uchlik – ota va farzandlar Lola hamda Sherzod obrazlari berilgan. She'rning dialogik qurilishi ota va Lola o'rtasidagi suhbat asosida ifoda etiladi. "Bahona" she'ridagi bola obrazida esa, bolalarning

ADABIYOTSHUNOSLIK

bahonachi va dangasalik fe'l-atvori, ularga xos bo'lgan sodda dunyoqarash hamda hozirjavob qiyofada ifodalanadi. She'r ona va Uzoqning dialogik nutqi asosiga qurilgan.

Ma'rab qoldi ona qo'y, / Ma'rab qoldi qo'zichoq.

Ichib bo'lgach choyingni / Suv berib chiqqin, Uzoq.

– Oyijon-ey, ularga / Keragi yo'q qarashni.

Qo'zichoqqa ona qo'y / O'rgatyapti ma'rashni [10.24].

She'r Uzoqning bahonachiligiga ishora sifatida "Bahona" deb nomlangan. Bola obrazida so'zamolik – topqirlik, dangasalik va ozgina ayyorlik xarakteri bilan parallel ravishda ochib berilgan. Bolalarning o'zlariga o'xshagan obrazlarni berilishi ulardagi kamchilik va nuqsonlarni yaqqol ko'ra bilishlariga, ularni tuzata olishga chorlaydi. Shoir bolalardagi kamchilik va xarakterni yumor asosida ifoda etadi. A.Akbarning she'rlari T.Adashboyev kabi muallif va lirik qahramon – bolakaylarning o'z nutqi orqali berilgan. Bolalar she'riyatida lirik qahramon quvnoq, ularga mos tarzda tafakkurga ega, sodda, ularning o'y-xayollari, ruhiy kechinmalari asosida berilishi bevosita yosh kitobxonni o'ziga jalb qiladi va o'rnak bo'ladi. O'ziga xos shakli novatorona ifodaga ega bo'lgan "Tishi yo'q-da" she'rida misralardagi nuqtalar o'mini mos so'zlar bilan to'ldirish topqir kitobxonga havola qilinadi. Ushbu she'rda bola "men"idagi topqirlik, uddaburonlik asosan she'rning yakunida beriladi, bunday ifoda kutilmagan vaziyatni yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Bolalarga xos fe'l-atvor opa-uka obrazida ochib berilgan. Opaning qizg'anchiqiligi, go'yo uning topqirligi ortidagi mehribonlik zamiriga yashiringan. Muallif esa tog'a obrazida namoyon bo'ladi.

– ni-chi, tog'ajon, / Novvot bilan ishi yo'q.

Chunki uning og'zida / Birorta sog'i yo'q [11.24].

Bunday she'rlar topishmoqqa xos bo'lib, yosh kitobxonga estetik zavq berish bilan birga intellektini rivojlantiradi, so'z boyligini oshiradi, fikrlash tarzini yuksaltiradi. Ushbu she'rlarda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar obrazi aks etgan bo'lsa, "Kamtar" she'rida maktab yoshidagi bola – Mirjalol orqali dangasa, bilmasvoy, ayni damda vaziyatdan chiqib keta oladigan bolalar obrazi yaratilgan.

Mavzularni aslida, / U a'loga bilarmish.

So'ralgan vaqt miq etmay, / Sal kamtarlik qilarmish.

Mirjalol xarakteridagi ushbu "kamtarlik" kitobxonda kulgi uyg'otadi. "Kechikkan oriyat" she'rida esa ko'chirmachi "Eshvoy" obrazi orqali bolalardagi salbiy xarakterlar – illatlar ko'rsatib berilgan. N.Novinkov ta'biri bilan aytganda: "Bolalarning murg'ak qalbiga hech bir narsa ibratdek ta'sir etmaydi". Ibratni, ta'lim-tarbiyani "inson" obrazi orqali yosh kitobxonlarga uqtirish asosiy o'rinni egallaydi. Buni bugungi bolalar ijodkorlarining asarlarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. She'rni tezis qismida kitobxon "Eshvoy a'lochi bilimdon bola ekan" – deb o'ylaydi. Antitezis qismi, kulminatsiyasi endi o'quvchida boshqa tasavvurni gavdalantiradi ya'ni Eshvoy a'lochi bola emas, balki, "uch-to'rt" baho oladigan ko'chirmachi bola ekanligi anglashiladi. Shoir ko'chirmachilik ham aslida o'g'rilik ekanligini "saboq o'g'risi" iborasi orqali ifoda etgan. She'rning so'nggi "Onasining ko'ziga / Qaray olmas edi Esh / Chunki u yozma ishni / Ko'chirib olgandi "besh" misralarida Eshvoyning psixologik va psixofiziologik holati – onasini xursand yuziga, ko'ziga qaray olmasligi, uyalishi muallif nutqi orqali ifoda etilgan. Ushbu holat she'r poetikasida kontrast tasviri yuzaga keltirgan. Ya'ni Eshvoy ko'chirmachiligidan uyalib, vijdoni qiynaladi. Yomon illat va yaxshi fazilat ushbu obrazda mujassamlashtirilgan. Bu obraz yaratishdagi poetik mahorat sanaladi. "Omonning orzusi" she'rida ijtimoiylik mavjud bo'lib, Omon misolida tabiatga, parranda va hayvonlarga, mehribon bola obrazi gavdalangan. Uning orzusida bugungi global muammolar aks etgan va bolaning tafakkur doirasiga mos yechim berilgan. She'rda tabiatga, jamiyatga bee'tibor bo'lmagan bugungi kun bolalari obrazi namoyon bo'lgan.

D.Rajabning ham turli obrazlarga murojaati, xarakter yaratish mahorati, badiiy tafakkur tabiati uning ijodiy uslubini belgilovchi muhim jihatlaridandir. Shoirning "Xulosa" nomli she'rida ona va kattalarga quloq solmaydigan bola obrazi berilgan. Ushbu obrazda barcha bolalar uchun salbiy odat bo'lgan gapga kirmaslik holatini o'rnak qilib ko'rsatib, jonli manzara asosida poetik tasviri yaratgan. Tezis qismida onaning xitobi bola nutqi orqali "Oyim aytdi sovuqda / Turmay uyga kir-kir" tarzda berilgan. Antitezis qismida onasining gapiga quloq solmas bolaning holati o'z nutqi orqali berilishi, ularning lug'atiga xos taqlid so'zlarning qofiyada keltirilishi poetik ta'sirdorlikni oshirgan. Sintez qismida "Mana endi yotibman / Tanim og'rib zir-zir." [12.19] misralarida gapga kirmaganidan

afsuslanish ifodasi mavjudki, bu yosh kitobxonga xulosa chiqarishga asos va o'rnak bo'ladi. Shoir bola obrazi misolida ulardagi kamchilik va salbiy holatlarni yengil kulgi asosida ochib bergan. Shuningdek, uning obrazlari o'z qilmishlaridan xulosa chiqara oladigan, fikrlaydigan, aqlli tarzda namoyon bo'lgan. She'r misralarining qisqaligi, bolalardagi nojoiz xarakterlarni ifodasi, bola obrazi mushohadakorligi bilan T.Adashboyevga izdosh sanalsa, o'ziga tegishli xulosa qilish, boshqa bolalarga ham maslahat berish, xatolarini to'g'rilashga undashi bilan o'ziga xoslik kasb etadi.

Dars tayyorlab o'tiruvdim / Kelib ukam,
Dedi: "Beshta baliq tutdim / Qarmoq bilan".
Ko'p o'tmasdan bilib qoldim / Ukam sirin –
Baliqlardan bo'shab qopti / Akvarium [13.33].

Ushbu she'rda juft – aka-uka obrazi ifodalangan bo'lib, ukaning chaqqonligi, kulgini yuzaga keltirgan bo'lsa, aka obrazida aqlli, bilag'on bolajon obrazi namoyon bo'lgan. Ushbu she'r didaktikadan holi bolalar sof olamining tasviri bilan ahamiyatlidir. Shoirning "G'aroyib sayr" she'rida qafasdagi hayvonlar oldida o'zini pahlavon sanovchi bolaning yumoristik obrazi aks etgan bo'lsa, "Fikratjonning fikricha" she'rida jiddiyroq, ba'zi jumboqlarga o'ylab javob beradigan aqlli bolalar obrazi o'z ifodasini topgan. "Real borliqdagi, inson ruhiyatidagi turli-tuman o'zgarishlar va kechinmalarni ijodkor o'z ong, dunyoqarashi, estetik ideali, g'oyaviy maqsadi orqali sintez qilishi oqibatida badiiy obraz shakllanadi. Shu sababli ijodkor yaratgan har bir yangi obraz yangi bir hilqat, yangi bir kashfiyotdir", – deb B.Sarimsoqov to'g'ri ta'kidlab o'tganidek, A.Akbar, D.Rajablar an'anaviy bola obraziga murojaat qilsa-da, ularning bolalarcha olamiga, dunyoqarashiga mos, sodda, samimiy, biroz sho'xroq fe'l-atvori, bugunning bilag'on bolajoni obrazini o'ziga xos tarzda namoyon qila oldi. Bolalarning bolalik olamidagi xarakter xususiyatlarini yumorda berish esa, kamchilik va xatolarini tushunib yetishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. G.Jo'rayeva: "Satirik va yumoristik she'rlarning barkamol inson tarbiyasida ahamiyati nihoyatda kattadir. ...bu tipdagi she'rlar bolalarning adabiy-estetik didini shakllantirib, xunuklikning suratini chizish orqali go'zallikni his qilish ruhida tarbiyalaydi"[14.101], – deb ta'kidlaganidek, bola obrazida kulgini yuzaga keltiruvchi holatlarni berilishi, tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatib o'ziga tegishli xulosa chiqarishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Alifbo va so'z o'yiniga asoslangan she'rlarida lirik qahramon ijodkor – muallim sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, ma'rifiy-tarbiyaviy mazmun kasb etuvchi "savol she'rlar"da barcha narsaga qiziquvchan bolalarning sersavollik, kuzatuvchanlik xarakter-xususiyatini aks ettirgan obrazlar o'z ifodasini topdi. T.Adashboyev savol she'rlar turkumida bolalarning fe'l-atvorini ifodalab, dunyoni bilishga, anglashga bo'lgan qiziqishlarini bolaning o'z nutqi orqali berilgan savollari asosida namoyon qiladi. "Uyaladi" she'rida (qiz va ota munosabati) qiziquvchan Erkinoy ismli qizaloq "– *Dada bulut ortiga / Quyosh nega berkinar?*" – deb savol bersa, "Yuz yuvmagani boladan / Uyaladi Erkinoy" – deya bolalar tafakkuriga mos javob beruvchi so'zamol ota obrazi aks etgan. "Mening savolim", "tun nechun qorong'u, kunduz nega yop-yorug', onasi va buvasi qayerdan yaralgani, qushlar nega parvoz etishi-yu, lekin qalpog'i uchmasligi"ga qiziquvchan bolalar obrazi berilgan. Shoir ushbu she'rlarida kuzatuvchan bola timsolini yaratib, borliqqa uning sinchkov nigohi bilan boqadi. "Har to'kisda bir ayb" she'rida olamning o'ziga xos jumboqlari – *echkining ulog'i nega soqol bilan tug'ilishi, ilonning qo'l oyoqsiz bo'lishi, asalari chaqib o'zi o'lishi* kabi savollari bilan kattalarni ham o'ylantiruvchi, bilishga intiluvchan bolalar obrazlari namoyon bo'lgan. T.Adashboyevning savol she'rlari do'stlar, ota va farzand kabi juft obrazlar asosida savol-javob tarzida ifodalangan bo'lsa, A.Akbarning savol she'rlari esa falsafiylikka xos bo'lib, dunyoni anglashga intiluvchan bola obrazi namoyon bo'lgan. "Bir daftar savol"[15.66-73] deb nomlagan turkum she'rlarida bir yoki ikki misradan iborat bo'lgan, mazmunan katta asarga teng savollar Shuhratjon ismli bola nutqi orqali beriladi. Shoir Shuhratjon misolida dunyoni o'z tasavvuri asosida anglashga harakat qilgan, sinchkov bola obrazini yaratadi. Savol mazmunida makon xronotopi yetakchilik qiladi. Ya'ni, Shuhratjon "Bekatta tug'ilgan savollar", "Yo'lda tug'ilgan savollar", "Maktabda tug'ilgan savollar", "Uyda tug'ilgan savollar", "Bog'da tug'ilgan savollar", "To'yda tug'ilgan savollar" kabi turlarga ham ajratib qo'ygan. A.A.Potebnya: "So'z subyektiv idrok etishdan hosil bo'ladi. U predmetning belgisini anglash bilan birga, shu predmetning yurakdagi in'ikosini ham belgilaydi"[16.53], – deb aytgan fikrlari o'rinli bo'lib, bolalar ham so'z ma'nosi va shu ma'noga mos mazmun bo'lishiga alohida e'tibor beradi. Shoirning "Bekatta tug'ilgan savollar" nomi bilan berilgan she'rda "Gulzor" deb atalgan bu keng bekatning / Tegrasida nega gul o'smas? – deya

ADABIYOTSHUNOSLIK

so'z ma'nosiga mos mazmun bo'lmaganidan hayron va bundan biroz norozi bo'lgan bola obrazi berilgan. Boisi bolalarning sohir olamida har bir holat, joy nomlanishi asliga mos bo'lishi kerakligi muhim sanaladi. Ayni shu obraz va tasvir D.Rajabning "Boyqush" she'rida ham namoyon bo'lgan. *Xarobada yashaysan, / Nega noming Boyqush?* – deya nomi hayot tarziga mos kelmasligiga hayron bola obrazini ko'ramiz. K.Chukovskiy: dashtni birinchi marta ko'rayotgan bolaga dasht (pustinya) deb nomini aytsa, dashtda ba'zi o'simlik va butalarni ko'rib, mavhumlikdan hayron bo'ladi, chunki uning tafakkur tasavvuri dashtni o'simliklarsiz keng maydon deb tushunadi, bolada e'tiroz paydo bo'ladi, shuning uchun bolalarga mo'ljallangan asarlar aniq obraz va tasvirlarda bo'lishini taqozo etadi, [17.14] – deydi. Yuqoridagi she'r buning isboti sanaladi. I.Kant bilish, idrok qilish kategoriyalari haqida ... bola so'zlarni ularning umumiy qabul qilingan ma'nosida emas, balki mazmunni o'zi o'zlashtirgan so'zlar bilan o'xshashlik bo'yicha qo'llashini aytib o'tadi. A.Akbarning ushbu turkum she'rlarida dunyoning ba'zi jumboqlariga hayron, o'ychan, mushohadakor bola obrazi namoyon bo'lgan. *"U boshi bozorga, bu boshi mozorga / Tutashligin bilarmi bu yo'l?"* kabi savol she'rida esa bolalar tafakkuridan ko'ra kattalar dunyoqarashiga xos holatni ko'ramiz, ya'ni bola obrazi misolida shoir "men"i sezilib turadi.

D.Rajab bolalarning sersavolligi, qiziqishlarini aks ettiruvchi savol she'rlarida biroz hajvga moyil Uchqunbek obrazini yaratadi. A.Akbarning savol she'rlarida hayot qonuni oldida hayron, mushohadakor, bosiq xarakterdagi qahramon gavdalansa, D.Rajab she'rlarida esa qiziquvchan bola tabiatiga xos soddalik bilan javob berib kulgili vaziyatni yuzaga keltiruvchi obraz aks etgan. Polyak bolalar shoiri Yan Bjevha yumor – bolalarga atalgan she'rning xamirturushi bo'lmog'i shartligini alohida ta'kidlab o'tgan. D.Rajabning "Jirafa" she'rida jirafaning bo'yni uzunligidan *"Qachon yetib borarkin / Qorniga yeganlari?"* – deya uning holatidan hayron, qiziquvchan bola qiyofasini ko'ramiz.

"She'rzodjon bilan savol-javob" she'rida ota-bola obrazi berilgan bo'lib, ularning savol-javobi mumtoz adabiyotdagi Maxtumlul va Durdi shoir savol-javobini yodga soladi.

- U nimadir xaltasida bolasi? / U nimadir yong'oq chaqar bolg'asiz?
- U kenguru xaltasida bolasi, / U olmaxon yong'oq chaqar bolg'asiz.

Shoir bolalarga mos tarzda jonotlar obrazidan foydalangan holda ularning o'z xarakter xususiyatidan kelib chiqib, qiziqarli savol she'rni yaratdi. Sherzodjon obrazida ko'p kitob o'qib, savollarga tez javob topuvchi uddaburon aqlli va bilimli, bolalarga o'rnak bo'luvchi obraz namoyon bo'lgan. Q.Qahramonov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Bolalar adabiyoti avvalo, san'at hodisasi sifatida insonni badiiy idrok etishi zarur. Uning tasvir obyekti insondir. Demak, bolalik olami kashf etilmagan asar har qanday tarbiyaviy maqsadni ko'zlamasin o'z maqsadiga erisha olmaydi". Darhaqiqat, bolalar ijodkorlari bolalarni, bolalikni ularning dunyosini tafakkur tarzini, qiziqishlarini aks ettirib, bugunning qahramonini yarata oldi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bola "men"ida qiziquvchanlik, soddasamimiylilik, beg'uborlik, kattalarga ijobiy munosabatda bo'lish, hajvga moyillik an'anaviylik kasb etsa, o'ziga xosligi esa davrning ijtimoiy mafkurasidan kelib chiqqan holda texnika vositalariga, kompyuterga, axborotga, yangiliklarga o'chligi, Olam va Odamni anglashga intilishi, tafakkur dunyosining o'sganligi, sinchkovligi, zukkoligi, aqlli va fikri teranligi, so'zamolligi, "kashfiyotchiligi" oldingi an'anaviy lirik obrazdan anchayin takomillashgani bilan keskin farqlanadi. Shuningdek, yosh kitobxonga o'zi kabi bolalarni o'rnak qilib ko'rsatish, ularni tegishli xulosa chiqarishlariga, fikrlashga, yaxshi-yomon fe'l-atvorni farqlashga, asosiysi, tarbiyaga chaqiradi. Bolalar yoshiga nisbatan tasniflanganda, ularning o'sha yoshiga-davriga xos bo'lgan ruhiy-psixologik jihatini ham toifalash mumkin. Ya'ni, maktabgacha bo'lgan davrini – dunyoni taniy borish, anglay boshlash; ilk maktab yoshi-qiziquvchanligi ortib, sho'xliklarga berilgan, o'yinqaroqlik davri; 11,12 yoshdan boshlab aqli kirayotgan, yaxshi-yomonni ajrata oladigan, mustaqil fikrlashni boshlagan davr kabi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Улугов А. Адабий қаҳрамон қадри // Ўзбек адабий танқиди. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2011. – Б.468.
2. Белинский В.Г. Танланган асарлар. II том. Тошкент: Ўздавнашр, 1955. – Б.28.
3. Ориф Тўхташ. Бола бўлолмасак барчаси бекор // Шарқ юлдузи. 2018. № 4. – Б.73.
4. Abdurahmon Akbar, G'aroyib avtobus. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – B.84.
5. Dilshod Rajab. Yaxshi bola – yaxshi bola. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – B.144.
6. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б.28-29.

7. Адашбоев Т. Осмондаги дарвоза. – Тошкент, 2003. – Б.21.
8. Абдурахмон Акбар. Уйинқароқ булутча. – Тошкент: Чўлпон, 1996. – Б.61.
9. Қуронов Д ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.223-224.
10. Abdurahmon Akbar. Uyquchining tushlari. – Toshkent: Sharq, 2006. – B.24.
11. Abdurahmon Akbar. Uyquchining tushlari. – Toshkent: Sharq, 2006. – B.24.
12. Дилшод Ражаб. Отамнинг боғи. – Тошкент: Чўлпон, 1995. – Б.19.
13. Дилшод Ражаб. Отамнинг боғи. – Тошкент: Чўлпон, 1995. – Б.33.
14. Жўраева Г. Ўзбек болалар шеърлятида ҳажвий образ яратиш маҳорати (XX асрнинг 80-90 йиллари материали асосида): Филол. фан. номз... дисс. – Т.: 2010. – Б.101.
15. Abdurahmon Akbar. Uyquchining tushlari. – Toshkent: Sharq, 2006. – B.66-73
16. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1973. – с.53.
17. Ўзбек болалар адабиёти ва адабий жараён. – Тошкент: Фан, 1989. – Б.14.